



AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Yo‘ldosheva D.A.

Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktranti

Tayanch so‘zlar: kreativ fikrlash, kasbiy kompetensiya, kreativ kompetentlik, umumiy kompetensiyalar, kasbiy kompetensiyalar, kasbiy tayyorgarlik, ijodiy faoliyat, akmeologik yondashuv, texnologiya.

Ключевые слова: креативное мышление, профессиональная компетентность, креативная компетентность, общие компетенции, профессиональные компетенции, профессиональная подготовка, творческая деятельность, акмеологический подход, технология.

Key words: creative thinking, professional competence, creative competence, general competencies, professional competencies, professional training, creative activity, acmeological approach, technology.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 20-aprel PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarorida Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko‘rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta’minlash maqsadida rivojlantirish chora-tadbirlari belgilab olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida bir qator vazifalar belgilangan bo‘lib, quyidagilarga alohida e’tibor qaratish zarur:

- individual ta’lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta’lim dasturlarini shakllantirish,
- mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va kreativ fikrlash, tizimli tahlil qilish, o‘quv jarayonida



kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish kabi vazifalar belgilandi.

Respublikamizda oliy ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichi ta'lim mazmuni va metodikasiga, uning samaradorligini oshirishga sifat jihatidan yangi talablar qo'yimoqda. Pedagogika ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

Umumiy kompetensiyalar:

- shaxsiy o'sishga intilishni shakllantirish va ob'yektiv baholash, shuningdek, ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan samarali foydalana olish;
- ona tilida o'z fikrlarini tizimli, erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash, ommaviy nutq so'zlash uchun ona tili va chet tillaridan birida yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini egallaganlik;
- axborotni olish, saralash, saqlash va qayta ishlash metod, usul va vositalaridan foydalanish va mediasavodxonlik; global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash ko'nikmalariga egalik.
- ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglash;
- gigiyena, mehnat muhofazasi va tashqi ta'sirlardan himoya qilish qoidalari talabalariga muvofiq, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishga qobiliyatlilik.

Kasbiy kompetensiyalar:

- o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;
- ta'lim jarayoni sub'ektlarining birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o'zaro harakatini tashkil etish usullarini egallaganlik;
- kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo bog'liqlikni amalga oshirish, shuningdek nazariya va amaliyot uyg'unligini, uzviylik va uzluksizligini ta'minlash;
- tanqidiy fikrlash metodikasini o'zlashtirganlik;
- tarbiya darslarida vatanparvarlik, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi ko'nikmalarni shakllantirish;

- inklyuziv ta’limga qadriyatli munosabatning tarkib topganligi; uzoq vaqt davolanishga muhtoj o’quvchilar bilan ishlash (gospital pedagogika) texnologiyasiga ega bo’lishi;
- ta’lim oluvchilarga o’zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik va mobillikka yo’naltirilgan o’qitishga qobiliyatlilik.

Yuqoridagi malaka talablarini o’rganish va tahlil qilish asosida bo’lajak pedagoglarni tayorlashda akmeologik yondashuvga asoslanish, bo’lajak pedagoglarning shaxsiy rivojlanishga bo’lgan motivatsiyani shakllantirish hamda intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko’nikmalarini shakllantirish, shaxsning kreativ kompetentligini rivojlantirish strategiyalarini o’rganish, uning shakllanishi va yetakchi tendensiyalarini ta’lim jarayoniga olib kirish ijtimoiy pedagogik zaruriyat ekanligi aniqlandi.

Akmeologik yondashuv asosida bo’lajak pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish muammosining dolzarbligi hozirgi kunda quyidagi holatlar bilan bog’liqligi aniqlandi:

- bo’lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligi samaradorligining ijtimoiy ustuvorliklarga bog’liqligi, unga ko’ra zamonaviy jamiyat ijtimoiy taraqqiyot sari kreativ harakatni amalga oshirishga qodir bo’lgan faol, tashabbuskor, kreativ fikrlaydigan va harakat qiladigan shaxslarga muhtoj;
- bo’lajak pedagogning kreativ shaxs sifatida rivojlantirish jarayonlarining faollik darajasi jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning murakkabligiga bog’liqligi, muammoga turli xil qarashlarning mavjudligi;
- kasbiy pedagogik ta’lim mazmunining bo’lajak pedagoglarning real va potensial imkoniyatlari bilan uyg’unligi;
- bo’lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning psixologik mexanizmlar va pedagogik texnologiyalardan ilmiy asosda foydalanishga bog’liqligi;
- bo’lajak pedagogning kasbiy va kreativ kompetentligini rivojlantirish samaradorligi shaxs ruhiy rivojlanishining notekis ekanligiga bog’liqligi.

Zamonaviy ta’lim tizimi bugungi kunda o’z oldiga shaxs mustaqilligi, erkinligini, kreativ kompetentligini rivojlantirishni asosiy vazifa etib belgilab berdi. Oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak pedagoglarga ta’lim berishda innovatsion, usul, metod va texnologiyalarga tayangan holda o’quv jarayonini tashkil etishlari hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishlari zarur.

Akmeologik yondashuv asosida bo’lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini amalga oshirish quyidagi uchta bosqichlarda amalga oshiriladi.



Birinchi bosqich - (Asoslovchi bosqich) bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligining dastlabki holatini o'rganish va uni hal etishning samarali yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan.

Bu bosqichda:

- bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligining rivojlanganligini tekshirish mezonlari va ko'rsatkichlari hamda darajalarini aniqlashtiriladi;
- akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligi rivojlantirish modeli mazmunini takomillashtiriladi;
- bo'lajak o'qituvchilarni kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi mazmuni aniqlashtiriladi;
- nazorat va tajriba guruhlarini shakllantiriladi.

Ikkinchi bosqich- (Shakllantiruvchi bosqich) akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish bilan bog'liq.

Ushbu bosqichda amalga oshirish zarur bo'lgan vazifalar:

- akmeologik yondoshuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik texnologiyasi va pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish;
- texnologiyani amalga oshirishga doir metodik qoidalarni o'rnatish;
- pedagogik shart-sharoitlarning har birini alohida-alohida va yaxlitlikda tajribada sinab ko'rish; tajriba-sinovning borishi va natijalarini tahlil etish;
- statistik ishonarli dalillarni olish uchun zarur shart-sharoitlarni aniqlashtirish;
- eksperimental ma'lumotlarga ishlov berish va qayta tahlil etish, xulosalarga kelish;
- akmeologik yondoshuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu bosqichda "Pedagogik texnologiya" va "Pedagogika fani metodologiyasi" fanlari doirasida akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda ta'limni tashkil etish shakllari: ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, to'garak, guruhli, individual, trening kabi shakllar tanlab olingan.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirish metodlari sifatida: keys-stadi, muammoli ta'lim, loyiha va kreativ metodlar ("Antiqa topishmoq", "Noodatiy fikrlaymiz", "Kreativ rag'bat"), interaktiv o'yinlar, akmeologik metodlar ("Muammo maydoni", "To'siqlar xaritasi", "Umr davomida ta'lim olish", "Kasbiy istiqbollar") takomillashtirishga qaratilgan.

Akmeologik yondashuv asosida kreativ kompetentlikni rivojlantirish vositalari: interaktiv dasturiy vositalar, o'quv reja, o'quv dasturlari, multimedia vositalari, AKT texnologiyalari, o'z-o'zini rivojlantirish dasturi tanlab olindi.

Uchinchi bosqich (yakunlovchi) eksperimental ma'lumotlarni tekshirish, ularni tahlil va talqin etish hamda akmeologik yondashuv asosida bo'lajak



pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning turli jihatlarini amaliy faoliyatda mustahkamlashga qaratilgan. Ushbu bosqichning asosini bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish maqsadida "Kreativ pedagog" nomli ilmiy-ijodiy to'garagi faoliyatini yo'lga qo'yish tashkil etadi.

"KREATIV PEDAGOG" ilmiy-ijodiy to'garakning asosiy maqsadi – talabalarda kreativ kompetentlikka oid ilmiy-nazariy bilimlarni, ularning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ularda o'z fikr-qarashlarini erkin va mustaqil bayon eta olish, ilmiy-ijodiy mushohada qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

"KREATIV PEDAGOG" ilmiy-ijodiy to'garagining asosiy vazifalari quyidagilar:

- bo'lajak pedagoglar ongida kreativ kompetentlikning mazmun-mohiyati haqida ilmiy-nazariy bilimlarni hosil qilish;
- kreativ kompetentlikni rivojlantirish tamoyillari, ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik omillar va uning tarkibiy komponentlari mazmunini tushuntirish;
- talabalarni kelajakda o'zlari tanlagan soha va yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishlari uchun boshlang'ich ma'lumotlar bilan tanishtirish;
- akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;
- talaba-yoshlarda barcha ko'rinishdagi salbiy holat va jarayonlarga nisbatan kurashuvchanlik ruhini yaratish va rivojlantirish;
- bo'lajak pedagoglarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish orqali ularning ta'lim va tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishida ilmiy, texnik va texnologik yutuqlarni qo'llay olishga tayyorlash va boshqalar.

Biz tomonimizdan "Kreativ pedagog" nomli ilmiy-ijodiy to'garak dasturi ishlab chiqilgan.

Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglar kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlar tizimi:

- umumiy (tizimli yondashuv, ijodiy rivojlanishga qaratilgan ta'lim muhiti, professionalashtirish tizimining optimal faoliyat yuritishi, pedagogik ta'limning uzluksizligi);
- xususiy (kompetentlikka asoslangan yondashuv, nazariy, amaliy va ijodiy tayyorgarlikning birligi);
- maxsus (shaxsiy rivojlanish yondashuvi, o'z ustida ishlashiga va o'zini kasbiy takomillastirish) shart-sharoitlardan tashkil topadi.

Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish tamoyillari:

1. Bo'lajak o'qituvchining kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayonida shakllanish va rivojlanishning birligi tamoyili.



2. Tizimli, kompetensiyaviy va shaxsni rivojlantiruvchi yondashuvlarning birligi tamoyili.

3. Ta'lim jarayonining kreativ yo'naltirilganligi tamoyili.

4. Kreativ kompetentlikni rivojlantirishning uzluksizligi va izchilligi tamoyili.

5. Bo'lajak o'qituvchining umumlashtirilgan ta'lim trayektoriyasi va individual ta'lim yo'nalishining o'zaro bog'liqligi tamoyili.

6. Bo'lajak o'qituvchining o'z pedagogik tajribasining har qanday jihatlariga nisbatan izlanish pozitsiyasini shakllantirish tamoyili.

Oliy ta'lim tizimiga akmeologik yondashuvning joriy etilishi ta'lim maqsadi, mazmuni, o'qitish shakli, o'qitish usullari, pedagogik texnologiyalari, nazorat usullarini hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi munosabatlarida jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi.

Shunga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etishning mavjud shakllari bo'lgan ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarini mazmun jihatidan o'zgartirish nazarda tutiladi. Ma'ruza darslarining muammoli ta'lim shaklida, seminar darslarni kreativ tafakkurni va amaliy mashg'ulotlarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishligi maqsadga muvofiq. Mustaqil ishlarni tashkil etishda individuallikka ahamiyat qaratish va ular hajmi jihatidan ko'proqni tashkil qilishi kerak.

Akmeologik yondashuv ta'limda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarning ham o'zgartirilishini taqozo etadi. Bilimlarni berishda kreativ pedagogik texnologiyaga o'tish talab etiladi. Kreativ pedagogik texnologiyada o'qituvchi tomonidan taqdim etilayotgan turli individual topshiriqlar ijodiy faoliyatga qaratilgan bo'lishi va ta'lim oluvchilarda har bir topshiriqni bajarishga ijodiy yondashuvni talab qilsin. Bu texnologiya o'qituvchi o'z o'quv fani yuzasidan doimiy ijodiy izlanishga, ta'lim oluvchini esa, topshiriqlarni bajarishda faqat o'z bilim va ko'nikmalariga tayanish kerakligini o'rgatadi.

Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarda kreativlik kompetentligini rivojlantirish uchun ularga erkinlik va o'zlashtirish imkoni bo'lishi kerak. Bu ularni o'z fikrlarini ifodalash, muammolar yechish va yaratish jarayonlarini tashkil etishga o'rgatish bilan amalga oshirilishi mumkin.

- Interaktiv texnologiyalardan, onlayn platformalardan va o'quv dasturlardan foydalanish o'quvchilarning faoliyatini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Bu usul talabalarga malakali savollar berish, muammolar yechish va yaratish jarayonlarini o'rganish imkonini beradi.
- Guruh ishlari va hamkorlik talabalarni bir-birlari bilan hamkorlik qilishga va fikr almashishga rag'batlantiradi. Bu usul talabalarni muammolar yechish, fikr bildirish va yaratuvchanlikni rag'batlantirishga imkon beradi.
- O'qituvchilar boshqaruv va tahlil qobiliyatlarini rivojlantirish uchun talabalarga muhim masalalarni tahlil qilish va o'z fikrlarini ifodalashni



o‘rgatishlari kerak. Bu talabalarning tafakkur va muhokama qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

- Ijodiy faoliyat va yaratish jarayonlariga tayanish talabalarning kreativlik va innovatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘qituvchilar talabalarni ijodiy faoliyatlar va yaratish jarayonlariga yo‘naltirishlari lozim.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni “O‘ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI. Toshkent sh., 2023-yil 11-sentabr, PF-158-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori / “Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi”, 29.06.2020y., 06/20/5370/0975-son, 09.07.2020y., 06/20/6021/1047-son, 28.09.2020y., 06/20/6075/1330-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 355-sonli “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i. – T.: 2021. – 31 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 7-avgustdagi 344-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 60110100 – Pedagogika bakalavriat ta’lim yo‘nalishining Malaka talablari. – T.: 2023. – 7-8- b.

5. Ma’murov B.B. Bo‘lajak pedagoglarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish tizimi: Ped.f.d. ...dis.-T.: Fan va texnologiyalar, 2017.

6. Ma’murov B.B. Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarni pedagogik faoliyatga tayyorlash. Monografiya. –T.: “Fan va texnologiya”, 2017.

РЕЗЮМЕ

Ta’lim tizimi bugungi kunda o‘z oldiga ta’lim mazmunini belgilashda mutaxassis kreativ kompetentligini rivojlantirishni asosiy vazifa sifatida belgilab beradi. Oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak pedagoglarga ta’lim berishda innovatsion, usul, metod va texnologiyalarga tayangan holda o‘quv jarayonini tashkil etishlari hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishlari zarur. Ushbu maqolada akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi mazmuni va uni amalga oshirish bosqichlari keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

Система образования сегодня ставит своей главной задачей развитие творческой компетентности специалиста в определении содержания обучения. Высшим учебным заведениям необходимо организовывать учебный процесс, опираясь на инновационные методы, методы и технологии в обучении будущих педагогов, а также развивать их профессиональные компетенции. В данной статье представлено содержание технологии развития креативной компетентности будущих педагогов на основе акмеологического подхода и этапы ее реализации.

SUMMARY

The educational system today sets itself the development of specialist creative competence as the main task in determining the content of Education. Higher education institutions need to organize the educational process and develop their professional competencies, relying on innovation, methods, methods and technologies in teaching future educators. This article presents the content of the technology for the development of creative competence of future educators on the basis of an acmeological approach and the stages of its implementation.